



UY-JOY NARXLARI VA AHOI DAROMADLARI TAHLILI

Berdaliyeva Muhabbatxon Zayniddin qizi,

"Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyyarat turizmi" kafedrasi o'qituvchisi,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston.

E-mail: ielts8owner@mail.ru

ORCID: 0009-0001-7788-5690

ANALYSIS OF HOUSING PRICES AND POPULATION INCOME

Berdaliyeva Muhabbatkhon,

Teacher, International Islamic Academy of Uzbekistan

"Islamic Economics and Finance" Department

Tashkent, Uzbekistan. Email: ielts8owner@mail.ru

ORCID: 0009-0001-7788-5690

JEL Classification: M1, M45

Annotatsiya. Maqolada uy-joy narxlari keskin ko'tarilishining turli omillari, shuningdek, indekslar asosida uy-joy bozori barqarorligining tahlili ko'rib chiqilgan. Maqolada aholi daromadlari hamda uy-joyni moliyalashirish davri, narxni ijara to'lovi bilan qoplash masalalari tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida respublikaning turli hududlaridagi oilalarning uy-joy bilan ta'minlanganlik darajasi o'r ganilib xulosalar berilgan. Tahlil ma'lumotlarining samaradorligini oshirish maqsadida hududlar va tijorat banklari kesimida turli statistik ma'lumotlar berilgan. Maqolada uy-joy bozori dinamikasini belgilovchi asosiy omillar, xususan uy-joyga bo'lgan talab va taklif, uy-joy va ijara narxlari, shuningdek aholining uy-joyga bo'lgan yuqori talabini qondirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi kabi masalalar o'r ganildi. Shu bilan birga, hududlar kesimida aholini uy-joy bilan ta'minlashning dolzarb masalalari, uy xo'jaliklari va qurilish kompaniyalari orasida o'tkazilgan so'rov natijalari ham maqolada o'z aksini topgan.

Abstract. The article examines various

factors of the sharp rise in housing prices, as well as the analysis of the stability of the housing market based on indices. The article analyzes the income of the population and the period of housing financing, the issues of covering the price with the rent payment. Based on the results of the analysis, the level of housing provision of families in different regions of the republic was studied and conclusions were drawn. In order to increase the effectiveness of the analysis data, various statistical data are given in terms of regions and commercial banks. In the article, the main factors determining the dynamics of the housing market, in particular, the supply and demand for housing, housing, and rental prices, as well as issues such as the state support system in meeting the high demand for housing of the population, was studied. At the same time, the current issues of providing housing to the population in the region, and the results of the survey conducted among households and construction companies are also reflected in the article.

Kalit so'zlar: ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomasi, ko'chmas mulk investitsiyasi,

"Pufak" indeksi, kadastr, o'rtacha ish haqi, ijara to'lovi

Keywords: real estate purchase agreement, real estate investment, "Bubble" index, cadastre, average salary, rent payment

Kirish. Mamlakat aholisining uy-joy bilan ta'minlanlanganlik darajasi makroiqtisodiy barqarorlik darajasining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Hozirda aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash maqsadida ko'plab moliyaviy mexanizmlardan samarali foydalanimoqda. Uy-joyni moliyalashtirish jarayoni boshqa turdag'i mol-mulkni moliyalashtirish jarayonidan murakkabroq amaliyot hisoblanadi, bunga asosiy sabab uy-joyni moliyalashtirish uchun zarur kapital hajmining kattaligi va uzoq muddatli moliyaviy manbalar talab qilishidir. Shu sababdan ham uy-joyni barqaror moliyalashtirish jarayoni iqtisodiyotning turli subyektlari, xususan, davlat, qurilish kompaniyalari, moliyaviy institutlar va uy xo'jaliklalarining faol kooperatsiyasini talab qiladi.

Mamlakatda uy-joyga bo'lgan talab va taklifning shakllantiruvchi birlamchi omillar sifatida:

– doimiy aholi sonining 2022-yilga nisbatan (36,8 mln) o'sish sur'ati 2,2 foizni, uy-xo'jaliklari soni o'sish sur'ati esa 1,8 foizni (128,7 ming) tashkil etishi;

– asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar, yalpi ichki mahsulot hajmini 6 foizga, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 3,8 foizga o'sishi;

– xodimlarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi o'sish sur'ati 17,2 foizni, aholi umumiy daromadlari o'sishi esa 15 foizni tashkil etishi;

– mamlakatda investitsion faollikning oshishi natijasida qurilish ishlarining o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4 foizga o'sishi;

– ipoteka kreditlari bo'yicha qulay real

foiz stavkasining shakllanishi natijasida uzoq muddatli investitsiya sifatida uy-joyga bo'lgan ehtiyojning oshishi;

– aholiga ipoteka kreditlari ajratishda tijorat banklari o'z resurs mablag'lari bilan ishtirokining faollahushi bilan izohlash mumkin[19].

“O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish maqsadlariga erishish katta hajmda xususiy investitsiyalarni talab etadi. 2030 yilgacha mo'ljallangan strategiyada urbanizatsiya darajasini 51% dan 60% ga yetkazish, Samarqand va Namangan shaharlarini “millionlik shaharlar”ga aylantirish, hududlarda 1 million xonardonli uy-joylar qurish, “Yangi O'zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo'shimcha 200 mingta oilaga mo'ljallangan uylarni barpo etish hamda respublikada kamida 140 ming oilaga mo'ljallangan ijtimoiy uylarni barpo etish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2040 yilga borib mamlakatimiz aholi soni 48 mln kishiga yetishi kutilmoqda[18].

Tadqiqot ma'lumotlari natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, uy-joy bozori hamda uy-joyni moliyalashtirish masalalari aholi farovonligini ta'minlashda nihoyatda muhimdir. Ushbu masalalarni samarali hal qilish va mavjud muammolar bo'yicha yechimlar berish bevosita mavjud holat bo'yicha statistik ma'lumotlarni izchil tahlil qilishni talab etadi.

Material va metod. Uy-joyni moliyalashtirish masalalari hamda ushbu sohaning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri ko'plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsada, ushbu uy-joyni moliyalashtirish amaliyoti turli iqtisodiy-itimoiy muhit sharoitlarida o'ziga xos tendensiyalarga egadir. Xususan, Xalqaro hisob-kitoblar banki va Xalqaro valyuta fondi ko'chmas mulk bozori indikatorlari va makroiqtisodiy barqarorlik o'rtaсидаги


bog'liqlikni tahlil qilgan[4], Jose A. Carrasco-Gallego esa ko'chmas mulk bozori, iqtisodiy barqarorlik va makromoliyaviy siyosatlarni muhokama qilgan[5], M.A.Davis va Van S. Nieuwerburgh lar esa uyjoyni moliyalashtirish jarayoni to'g'ridan-to'g'ri makroiqtisodiyotga qanday ta'sir qilishini modellar vositasida ko'rib chiqqan[6]. Ushbu olimlarlarning tadqiqot natijalari turli mamlakatlarning uy-joy va iqtisodiy barqarorlik jarayonlarini modellashtirishda amaliy ahamiyatga egadir.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomondan uy-joyni moliyalashtirish jarayoni hamda iqtisodiy inqirozlarning o'zaro bog'liqlik jihatlari M.Xmelnitskaya [11] tomonidan o'rganiqan. O.Bochkareva esa Rossiya Federatsiyasida uy-joy qurilishini moliyalashtirish masalalarini ko'rib chiqqan [12]. A.Abdizhapar esa Qozog'iston respublikasida 2016-2020 yillar oraliq'idagi davlatning ipoteka dasturlari tahlilini amalga

oshirgan [13].

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan T.A.Hasanov o'z ilmiy ishida xususiy uy-joy mulkdorlari shirkatlari moliyaviy-xo'jalik faoliyatining amaldagi holati tahlilini amalgalashdi [7], U.I.Jumaniyazov esa, O'zbekistonda Davlat xususiy sheriklik asosida uy-joy qurilishi sohasini moliyalashtirish va kreditlash amaliyoti muammolari tahlilini ko'rib chiqqan [8] va I.M.Alimardonov esa O'zbekistonda ipotekali kreditlashni rivojlantirish masalalarini tahlil qilgan va zarur tavsiyalar ishlab chiqqan [9] bo'lsa-da, biroq O'zbekistonda uy-joyni moliyalashtirish bilan bog'liq tendensiyalar tahlilini to'liq yoritilmagan.

Natijalar. O'zbekistonda ko'chmas mulk bozori jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda 2017-2022 yillarda qurilish ishlari 86% ga o'sdi hamda qurilish sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 5,1% dan 6,3% ga yetdi.



1-rasm. Ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari sonidagi o'zgarishlar¹

¹ Muallif ishlanmasi ("Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti" o'tkazgan tahlil natijalari asosida)

Hatto, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ham qurilish sohasiga katta ta'sir o'tkaza olmadi. 2020 yilda iqtisodiy o'sish 2% gacha sekinlagen bir paytda qurilish ishlari real o'sish sur'atlari 9,5% ni tashkil etdi. Uy-joy taklifi bilan bir qatorda uy-joyga bo'lgan talab bozori ham rivojlanib bormoqda. 2024 yil yanvar oyida jami 22000 ta uy-joy chizig'i o'sib borish xarakteriga ega. So'nggi yillarda investitsiya nuqtai nazaridan, 2 va 3 xonali uy-joylar katta daromad ko'rsatkichi bilan investorlar va bozordagi uy-joy oldi-sotdisi bilan shug'ullanuvchilar uchun jozibador variantga aylangan.

Uy-joy narxlarining mahalliy daromadlar va ijara to'lovlaridan tezroq o'sishi ko'chmas mulk bozorida narx pufagi shakllanayotganidan dalolat beradi. "Pufak" atamasi aktivlar real qiymatini doimiy ravishda noto'g'ri baholanishini anglatadi, lekin ushbu pufak yorilmaguncha uning mavjudligini isbotlab bo'lmaydi.

Mazkur indeks quyidagi beshta standartlashtirilgan subindekslarning o'rtacha

sotildi, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20% yuqoridir.

2021-2023 yillar davomida Respublikamizda rasmiylashtirilgan uy-joy shartnomalari sonida o'zgaruvchan tendensiyalarni kuzatishimiz mumkin. Biroq yakuniy trend

tortilgan qiymatini hisoblash asosida aniqlandi:

- uy-joy narxining o'rtacha yillik daromadga nisbati;
- uy narxining ijaradan keladigan yillik daromadga nisbati;
- hudud va mamlakatdagi narxlar o'rtasidagi farq (fundamental omillar);
- ipoteka kreditlarining YaIMGa nisbati o'zgarishi;
- qurilish ishlarining YaIMGa nisbati o'zgarishi (iqtisodiy omillar).

Quyidagi jadvalda uy-joy qurilishini amalga oshirish imkoniyatlari yuqori bo'lgan hududlarda 1 kv.m uyning o'rtacha narxlari keltirilgan.

Jadval-1


Qurilish kompaniyalari tomonidan taklif etilayotgan narxlari [18]

| № | Hududlar | 1 kv.m uyning o'rtacha narxi (AQSh dollari ekvivalentida) | | | |
|---|--------------------|---|--|--|---|
| | | Kadastr olishdan oldin minumum o'rtacha narx | Kadastr olishdan oldin maksimum o'rtacha narx | Kadastr olgandan keyin minumum o'rtacha narx | Kadastr olgandan keyin maksimum o'rtacha narx |
| 1 | Andijon viloyati | 460 | 450 | 511 | 500 |
| 2 | Buxoro viloyati | 342 | 462 | 509 | 698 |
| 3 | Farg'onha viloyati | 445 | 482 | 511 | 542 |
| 4 | Namangan viloyati | 383 | 447 | 452 | 535 |

| | | | | | |
|----------|---------------------------------|-----|------|------|------|
| 5 | Qoraqalpog'isto Respublikasi | 434 | 437 | 488 | 498 |
| 6 | Samarqand viloyati | 408 | 481 | 562 | 664 |
| 7 | Surxondaryo viloyati | 363 | 412 | 445 | 498 |
| 8 | Toshkent viloyati | 491 | 593 | 647 | 747 |
| 9 | Toshkent shahri | 744 | 1086 | 1150 | 1793 |


Aholining uy-joyga bo'lgan ehtiyojini baholash maqsadida respublikaning barcha hududlarida aholi orasida so'rov o'tkazildi. Mazkur so'rovda 5455 nafar kishi ishtirok etdi. So'rovda ishtirok etganlarning aksariyat qismining (56%) oylik oilaviy daromadlari 4-8 mln so'mni tashkil etadi. Faqatgina salkam 4% respondentlarning jami oilaviy daromadlari 15 mln so'mdan oshadi.

"Pufak indeksi" ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan narx-daromad nisbati ko'rsatkichi o'rtacha oylik ish haqi olayotgan ishchi-xodim o'z hududidagi 2 xonali xonadonni sotib olish uchunnecha yil ishlashi kerakligini ko'rsatadi. Bunda Uy sotib oluvchi yillik daromadini to'lig'icha uy- joy sotib olishga yo'naltirganda deb tahmin qilingan. Quyidagi rasmida ushbu ko'rsatkich respublikamizning turli hududlari kesimida taqdim etildi.



2-rasm. Respublika bo'yicha aholining oylik oilaviy daromadlari²


² Muallif ishlansasi ("Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti" o'tkazgan tahlil natijalari asosida)



3-rasm. O‘rtacha ish haqi miqdorida daromadga ega ishchi-xodim hududidagi 2 xonali uy sotib olishi uchun ishlashi kerak bo‘lgan yillar³

Hududlardagi o‘rtacha oylik ish haqidan kelib chiqib, 2 xonali uyni sotib olish o‘rtacha 6 yildan 13 yilgacha muddatni talab etadi. Daromadga nisbatan eng qimmat 2 xonali uylar Samarqand viloyati (13 yil) va Toshkent shahrida (10 yil) bo‘lsa, nisbatan arzonroq uylarni Navoiy (6 yil), Xorazm (7 yil), Sirdaryo (7 yil) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (7 yil) sotib olish mumkin. Samarqand viloyatida hozirda taklif etilayotgan

eng arzon 2 xonali xonodon narxi viloyatdagι o‘rtacha yillik daromaddan 5 barobar yuqori bo‘lsa, eng qimmat 2 xonali xonodon qiymati 30 barobar yuqori hisoblanadi. Toshkent shahrida ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 6 va 26 barobarni tashkil etadi. Taqqolash uchun, Xorazm viloyatida xuddi shu toifadagi xonadonni sotib olish uchun o‘rtacha yillik daromaddan 4 baravardan 13 baravargacha ko‘proq mablag‘ talab qilinadi.




4-rasm. 2 xonali xonodon narxini to‘lash uchun uni ijara berish kerak bo‘lgan yillar soni⁴

³ Muallif ishlanmasi (“Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti” o’tkazgan tahlil natijalari asosida)

⁴ Muallif ishlanmasi (“Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti” o’tkazgan tahlil natijalari asosida)

Uy-joy narxining ijara narxlariga nisbatan tezroq o'sishi narx-ijara nisbatini oshiradi yoki aksincha ijara narxlarining tezroq o'sishi ijaradan olinadigan daromad orqali uyni sotib olish xarajatlarini to'liq qoplash uchun talab etiladigan muddatni

qisqartiradi. Hozirda 2 xonali uy uchun narx-ijara nisbatining eng yuqori o'rtacha qiymati Toshkent shahrida (12 yil) bo'lsa, eng past o'rtacha nisbat Farg'ona (8 yil) va Xorazm (8 yil) viloyatlarida kuzatilmogda.



5-rasm. Narxni o'rtacha ish haqi va ijara haqi bilan qopplash yillari⁵

Ta'kidlash kerakki, Samarqand va Namangan viloyatlarida narx-ijara nisbati narx-daromad nisbatiga qaraganda pastroq hisoblanadi. Bu esa ushbu hududlarda ijaradan keladigan o'rtacha yillik daromad rasmiy o'rtacha ish haqi daromadidan yuqoriligini ko'rsatadi. Ushbu tendensiya mazkur hududlarda aholi sonining ko'pligi hamda uy-joy ijarasiga bo'lgan talabning yuqoriligidan dalolat beradi. Aksincha, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida narx-daromad nisbatining narx-ijara nisbatiga qaraganda pastroqligi ushbu hududlarda o'rtacha ish haqi ijaradan olinadigan daromaddan ko'proqligini anglatadi.

2023 yil sentyabr oyi yakunlari bo'yicha o'rtacha nominal ish haqi Toshkent shahrida 7,2 mln so'm, Navoiy viloyatida 5,8 mln so'm

va Toshkent viloyatida 4,4 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, qolgan hududlarda ushbu ko'rsatkich 3-4 mln so'm oralig'ida joylashgan[18].

Xulosa. Ko'chmas mulk va ipoteka bozori mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini va kelajakdagi o'sish istiqbollarini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ko'chmas mulk sektori nafaqat iqtisodiy farovonlikning asosiy ko'rsatkichlari sifatida xizmat qiladi, balki aholining turmush darajasi va milliy iqtisodiyotning umumiy holatiga oid muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari, shu jumladan ipoteka kreditlari va subsidiyalar ajratish bo'yicha yangi siyosatni amalga

⁵ Muallif ishlamasি ("Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti" o'tkazgan tahlil natijalari asosida)



oshirilishi, doimiy ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi hamda qurilish uchun yer uchastkalari ajratish tizimidagi islohotlarning chuqurlashtirilishi bilan ko'chmas mulk bozori izchil rivojlanib bormoqda. Natijada, so'nggi yillarda uy-joy va tijorat ob'yektlariga investitsiyalar hajmi bir necha barobar ko'paydi. Hukumat tomonidan ko'chmas mulk sanoatini rivojlantirish va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni ham jalg qilish bo'yicha faol choralar ko'rilmoxda.

O'zbekistondagi uy-joy bozori hamda uni moliyalashtirishning joriy holatini tahlil qilgach aytish mumkinki, respublikada uy-joyga yuqori

talab mavjud. Uy-joy bozoridagi mulk obyektlarining yuqori narxlari nafaqat aholining uy-joyga bo'lgan tabiiy ehtiyoji balki, uy-joy obyektlaridan investitsiya sifatida foydalanishi natijasida ham rivojlanib bormoqda. Uy-joyni moliyalashtirishda hozirgi ipoteka kreditlari eng ommalashgan usullaridan biridir. Buning asosiy sababi aholi uchun rasmiylashtirish tartibining osonligi hamda to'lov tartibining qulayligidir. Uy-joyni moliyalashtirishni takomillashtirish mavjud moliyalashtirish usullarini qayta ko'rib chiqib, tahlil qilish hamda muqobil moliyalashtirish usullarini joriy etish masalalarini tahlil qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 sentabrdagi PQ-377-son "Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 13 apreldagi PF-51-son "2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. Bis, I. (2005). Real estate indicators and financial stability. In Proceedings of a Joint Conference. Bank for International Settlements and International Monetary Fund, Washington.
5. Carrasco-Gallego, J. A. (2020). Real estate, economic stability and the new macro-financial policies. Sustainability, 13(1), 236.
6. Davis, M. A., & Van Nieuwerburgh, S. (2015). Housing, finance, and the macroeconomy. In Handbook of regional and urban economics (Vol. 5, pp. 753-811).
7. Hasanov T.A. O'zbekistonda xususiy uy-joy fondini boshqarish tizimini takomillashtirish, PhD dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent-2019
8. Jumaniyazov U.I. Davlat-xususiy sherikchiligi asosida uy-joy qurilishi sohasida korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish, PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent-2018
9. Alimardonov I.M. O'zbekistonda ipotekali kreditlashni rivojlantirish istiqbollarri, Toshkent-2009
10. "Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti" o'tkazgan tahlil natijalari, 2023
11. Khmelnitskaya, Marina. "Housing and housing finance in Russia at a time of crisis." Housing Finance International (2016): 20-25.



-
12. Bochkareva, O. (2021). Practical application of project financing of housing construction in Russian Federation. In Contemporary Problems of Architecture and Construction (pp. 409-413). CRC Press.
 13. Abdizhapar, A. (2022). Analysis on State of Mortgage Lending for 2016-2020 in the Republic of Kazakhstan. Eurasian Journal of Economic and Business Studies, 1(63), 100-118.
 14. Astanakulov, O. (2019). Real options as a financial instrument to evaluate a project with a high degree of uncertainty: the specifics of application. Economic Annals-XXI, 179(9-10), 105-114. doi: <https://doi.org/10.21003/ea.V179-09>
 15. IMRS va Biznesni rivojlantirish banki, “O‘zbekiston ko‘chmas mulk va ipoteka bozori” hisobot, 2023
 16. Астанакулов О.Т., Шеина Е.Г. Совершенствование системы финансовых инвестиций как объекта экономического анализа // Финансы и кредит. 2020. Т. 26. № 3 (795). С. 508 – 526. DOI 10.24891/fc.26.3.508
 17. Шеина Е.Г., Астанакулов О.Т. Теоретические подходы к изучению инновационного финансирования в условиях улучшения инвестиционного климата // Известия Дальневосточного федерального университета. Экономика и управление. 2020. № 1 (93). С. 93 – 105. DOI 10.24866/2311-2271/2020-1/93-105
 18. IMRS va Biznesni rivojlantirish banki, “O‘zbekiston ko‘chmas mulk va ipoteka bozori” hisobot, 2023
 19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish departamenti tomonidan tayyorlangan hisobot, 2024 (2023 yil uchun).